

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 425-429 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

ISTE'MOL TOVARLARI SAVDOSINING SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI



Usmanov Zayniddin Berdirasulovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Real” iqtisodiyot kafedrasи katta o’qituvchisi

Annotasiya: Maqolada iste'mol tovarlari savdosining samaradorligini oshirish va rivojlantirish omillari o'r ganilgan. Samarqand viloyatida iste'mol tovarlari savdosining umumiyligi holati va rivojlantirish yo'llarini statistik tahlil qilinib, asosiy muammolari aniqlangan. Iste'mol tovarlari savdosining rivojlantirish yo'llarini aniqlash va asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iste'mol tovari, iste'mol tovarlari savdosi, iste'mol tovarlari bozori, raqobat, kon'yunktura, oziq-ovqat, nooziq-ovqat, aholi daromadlari, iste'mol xarajatlar, chakana savdo, ulgurji savdo, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning mohiyati, tushunchasiga ko'plab har xil qarashlar mavjudligi kabi, uning har xil mezonlari va ko'rsatkichlari tasnif qilinadi. Ko'pchilik mualliflar samaradorlik nisbiy ko'rsatkich, deb ta'kidlab, u olingan (erishilgan) natija bilan xarajatlar nisbati orqali aniqlanishini tavsiya qilishadi.

Bizning fikrimizcha “samara”, ‘natija’ o'z tabiatiga binoan son va sifat ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Son ko'rsatkichlar sifatida absolyut miqdorlar – qiymat, natural va shartli o'lchov birliklarida ifodalansa, sifat ko'rsatkichlari sifatida har xil solishtirma (nisbiy) ko'rsatkichlar ishlatilishi mumkin.

Endi samaradorlik me'zoni haqida fikrlarimiz bilan tanishamiz. Yuqorida ta'kidlangan “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “mezon” so'ziga quyidagicha izoh berilgan. Ushbu so'z ham arab tilidan olingan bo'lib “o'lchov, tarozi; muvozanat, odillik” ma'nolarini anglatishi e'tirof etilgan. Bunga 6 ta izoh berilgan. Ulardan ikkitasi iqtisodiyotga oid bo'lib, ular quyidagilardan iborat: “1. Tarozi, o'lchov. 2. Taqqoslash yoki baholash uchun o'lchov, andoza”¹. Endi yuqoridagi ikki so'zdan iborat bo'lgan “samaradorlik mezoni” so'z birikmasiga izoh berish mumkin. “Samaradorlik mezoni”, deyilganda foydalilik o'lchovi, natijaviylik o'lchovi kabi o'lchov bilan bog'liq ma'nolar kelib chiqadi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ortiq so'z va so'z birikmasi. T.Mirzayev va boshq. O'zRFA Til va adabiyot in-ti. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 578-b.

Savdo korxonalarining samaradorligi mezoni to'g'risida fikr yuritganda tizimli tahlil, tizimli munosabatni ishlatish lozim. Samaradorlik mezoni xodisalar, jarayonlar va holatni sifat belgisi sifatida tarmoq yoki korxona faoliyati maqsadini aks ettirishi zarur.

Savdo sohasining maqsadi ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, bir tomonidan, aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish bo'lsa, ikkinchi tomonidan optimal miqdorda foyda olish yoki optimal rentabellikka erishishdir.

1-jadval


Samarqand viloyati tumanlari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi mlrd.so'm²

Hududlar	2015 yil	2016 yil	201 7 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Samarqand sh	1602	154,4	2310,6	3068,9	4231,8	6358,0	8346,0	9126,5	10474,3
Kattaqurg'on sh	363,6	467,9	561,8	592,3	772,9	912,2	1144,5	1546,9	1788,0
Oqdaryo tum	152,6	198,7	235,5	330,1	287,3	458,1	546,2	617,3	736,2
Bulung'ur tum	296,0	374,3	473,3	799,3	724,1	730,0	901,4	1049,6	1252,6
Jomboy tum	161,9	204,6	244,1	304,5	388,1	588,1	787,8	913,5	1079,1
Ishtixon tum	239,2	307,5	368,0	464,4	605,4	596,1	719,3	885,6	1060,2
Kattaqurg'on t	279,6	356,1	422,1	441,8	564,7	738,0	944,4	1467,7	1736,3
Qushrobot t	215,5	278,6	333,2	372,0	444,7	370,4	484,8	440,7	515,7
Narpay tum	243,6	308,6	366,4	402,2	463,2	559,4	700,1	806,5	959,6
Payariq tum	250,5	315,2	377,0	415,4	476,5	663,1	830,8	955,7	1120,4
Pastdarg'om t	471,3	597,8	684,6	823,3	952,0	1025,2	1196,4	1456,6	1697,3
Paxtachi tum	236,5	295,3	348,4	439,6	485,0	346,5	431,0	508,6	603,4
Samarqand t	254,1	308,5	339,8	582,3	872,0	825,0	1146,4	1655,3	2535,8
Nurobod tum	248,1	320,4	376,0	415,6	510,9	416,0	511,2	439,2	510,6
Urgut tumani	876,3	1079,6	1256,5	1326,2	1703,0	1751,8	2238,6	2788,9	3272,3
Tayloq tum	187,4	237,7	276,2	345,2	395,7	478,9	689,1	684,1	874,9
Samarqand v	6078,2	7605,2	8973,5	11123,1	13877,3	16816,8	21617,9	25342,5	30216,6

1-jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki samarqand viloyatidagi tumanlarida 2015-2023 yillardagi chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu jadvaldagi xududlar ketma ketligi bo'yicha 2023 yilda 2015 yilga nisbatan necha barobarga chakana tovar aylanmasi oshganligini tahlili qilamiz. Samarqand shahar 6,5 barobar, Kattaqurg'on shahar 4,9 borabar, Oqdaryo tumani 4,8 barobar, Bulung'ur tumani 4,2 barobar, Jomboy tumani 6,6 barobar, Ishtixon tumani 4,4 borabar, Kattaqurg'on tumani 6,2 barobar, Qushrobot tumani 2,3 barobar, Narpay tumani 3,9 barobar, Payariq tumani 4,4 barobar, Pastdarg'om tumani 3,6 barobar, Paxtachi tumani 2,5 barobar, Samarqand tumani 9,9 barobar, Nurobod tumani 2,0 barobar, Urgut tumani 3,7 barobar, Tayloq tumani 4,6 barobar, Samarqand viloyatiniki esa 4,9 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Endi uchta eng kam ko'rsatkichni tashkil etgan xududlarni tahlil qiladigan bo'lsak. Birinchisi Nurobod tumani 2,0 barobar oshganligi bilan viloyatda eng kam ko'rsatkichni tashkil

² Samstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

qiladi. Ikkinchisi Qushrobot tumani 2,3 barobarga oshganligini ko'rishmiz mumkin. Uchinchi o'rinda Paxtachi tumani 2,5 barobarga oshganligini kurishimiz mumkin. Bu tahlildan shunday xulosaga kelish kerakki ushbu tumanlarda chakana savdo tovar aylanmasini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.



3

1-rasm Samarqand viloyati tumanlari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi mlrd.so'm

Ushbu rasm ma'lumotlaridan kurnib turibdiki Samarqand viloyati tumanlari kesimi bo'yicha 2023 yilda chakana tovar aylanmasi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak. Samarqand shahrida 10 474,3 mlrd, Kattaqo'rg'on shahrida 1 788,0 mlrd, Oqdaryo tumanida 736,2 mlrd, Bulung'ur tumanida 1252,6 mlrd, Jomboy tumanida 1079,1 mlrd, Ishtixon tumanida 1060,2 mlrd, Kattaqo'rg'on tumanida 1736,3 mlrd, Qo'shrabot tumanida 515,7 mlrd, Narpay tumanı 959,6 mlrd, Payariq tumanida 1120,4 mlrd, Pastdarg'om tumanida 1697,3 mlrd, Paxtachi tumanida 603,4 mlrd, Samarqand tumanı 2535,8 mlrd, Nurobod tumanı 510,6 mlrd, Urgut tumanida 3272,3 mlrd, Tayloq tumanida 874,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Endi ushbu ko'rsatkichni viloyat bo'yicha umumlashtirsak jami 30 216,7 mlrd so'mni tashkil etadi. Endi eng yuqori bo'lgan tumanlar keltirsak birinchi o'rinda Samarqand shahri ya'ni 10 474,3 mlrd so'm,

³ Samstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ikkinchi o'rinda Urgut tumanida 3272,3 mlrd so'm, uchinchi o'rinda Samarqand tumani 2535,8 mlrd so'm, turtinchi o'rinda Kattaqo'rg'on shahrida 1 788,0 mlrd so'm, beshinchi o'rinda Kattaqo'rg'on tumanida 1736,3 mlrd so'm, oltinchi o'rinda Pastdarg'om tumanida 1697,3 mlrd so'm, yettinchi o'rinda Bulung'ur tumanida 1252,6 mlrd so'm, sakkizinchi o'rinda Payariq tumanida 1120,4 mlrd so'm, to'qqizinchi o'rinda Jomboy tumanida 1079,1 mlrd so'm, o'ninchи o'rinda Ishtixon tumanida 1060,2 mlrd so'm, o'n birinchi o'rinda Narpay tumanı 959,6 mlrd so'm, o'n ikkinchi o'rinda Tayloq tumanida 874,9 mlrd so'm, o'n uchinchi o'rinda Oqdaryo tumanida 736,2 mlrd so'm, o'n turtinchi o'rinda Paxtachi tumanida 603,4 mlrd so'm, o'n beshinchi o'rinda Qo'shrobot tumanida 515,7 mlrd so'm, o'n oltinchi o'rinda Nurobod tumani 510,6 mlrd so'm chakana tovar aylanmasi tashkil etgan. Ko'rib turganimizdek tumanlar kesimida tumanlarni chakana tovar aylanmasini tahlil qilganimizda eng past ko'rsatkich Nurobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

2-jadval

Samarqand viloyati tumanlari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi aholini jon boshiga to'g'ri kelishi hajmi mln so'm.⁴

T/r	Hududlar	Tovar aylanmasi mlrd so'm	Aholisi ming kishi	Aholi jon boshiga to'g'ri kelishi ming so'm
1.	Samarqand shahri	10474,3	585,2	17,8
2.	Kattaqo'rg'on shahri	1788	94,9	18,8
3.	Oqdaryo tumani	736,2	173,2	4,2
4.	Bulung'ur tumani	1252,6	202	6,2
5.	Jomboy tumani	1079,	189,5	5,6
6.	Ishtixon tumani	1060,2	275,9	3,8
7.	Kattaqurg'on tumani	1736,3	293,8	5,9
8.	Qushrobot tumani	515,7	141,9	3,6
9.	Narpay tumani	959,6	227,4	4,2
10.	Payariq tumani	1120,4	273,3	4,0
11.	Pastdarg'om tumani	1697,3	383,3	4,4
12.	Paxtachi tumani	603,4	152,3	3,9
13.	Samarqand tumani	2535,8	272,8	9,2
14.	Nurobod tumani	510,6	162,7	3,1
15.	Urgut tumani	3272,3	559,2	5,8
16.	Tayloq tumani	874,9	221,1	3,9
17.	Samarqand viloyati	30216,7	4208,5	7,1

Ushbu rasm ma'lumotlaridan kurinib turibdiki Samarqand viloyatini xududlarini chakana tovar aylanmasini aholiga nisbatan tahlil qilganimizda birinchi o'rinda Kattaqurg'on shahri 17,8 ming so'mni, ikkinchi o'rinda Samarqand shahri 17,8 ming so'mni, uchinchi o'rinda samarqand tumani 9,2 ming so'm, turtinchi o'rinda Bulung'ur tumani 6,2 ming so'm, beshinchi o'rinda Kattaqurg'on tumani 5,9 ming so'm,

⁴Samstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansmasi

oltinchi o'rinda Urgut tumani 5,8 ming so'm, yettinchi o'rinda Pastdarg'om tumani 4,4 ming so'm, sakkizinchchi o'rinda oqdaroyo tumani va Narpay tumanlari 4,2 ming so'm, to'qqizinchchi o'rinda Payariq tumani 4,0 ming so'm, o'ninchchi o'rinda Paxtachi va Tayloq tumanlari 3,9 ming so'm, o'n birinchi o'rinda Ishtixon tumani 3,8 ming so'm, O'n ikkinchi o'rinda Qo'shrobot tumani 3,6 ming so'm, O'n uchinchi o'rinda Nurobod tumani 3,1 ming so'mni tashkil etmoqda. Viloyatniki esa 7,1 ming so'mni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Toshkent. 2021 yil.
2. B.Abdukarimov "Ichki savdo iqtisodiyoti" darslik 1 qism Toshkent 2007 y
3. Abdurashidov A. Iste'mol tovarlari bozori rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. -T: 2012 yil
4. Potrebitelskiy tynok goroda: sostoyaniye i perspektivy: monografiya / kol. avt. pod ruk. T.V. Uskovoy. – Vologda: ISERT RAN, 2012.
5. Novikova, N.V. Ponyatiyno-terminologicheskiy apparat issledovaniya lokalnogo potrebitelskogo tynka // Municipalitet: ekonomika i upravleniye. – 2012.
6. Guryanov, T.I. Sovershenstvovaniye metodiki osenki sostoyaniya potrebitelskogo tynka // Jurnal «Kazanskaya nauka». – 2012.
7. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

